

## **XOJA ORIF REVGARIYNING HAYOTI VA “ORIFNOMA” ASARINING MOHIYATI**

**Raxmatova Dildora Sadriyevna**

*Zarmad universiteti “Ijtimoiy fanlar”*

*kafedrasi o’qituvchisi*

+99850-889-59-96

[dildorarahmatova946@mail.com](mailto:dildorarahmatova946@mail.com)

**Annotatsiya:** Xojagon tariqatining ulug‘ pirlaridan bo’lgan Xoja Orif Revgariyning hayoti va uning “Orifnoma” asaridagi g’oyalari bu g’oyalarning inson kamololtidagi o’rnini to‘g‘risida ma’lumot beradi.

**Kalit so‘zlar:** Orif Revgariy, “Orifnoma” asari, shariat, ma’rifat, tariqat, silsila, pir, murid, murshid, sayru suluk, tavoze, xonaqo, Xojagon silsilasining ikkinchi piri

Xoja Orif Revgariy taxminan (hijriy) 560/1165-yili Shofirkon tumanidagi Revgar qishlog’ida tavallud topgan. U “Mohitobon” laqabi bilan mashhur bo’lgan. Tarixchilarning aytishicha, Xoja Orif Revgariy o’rtalagi bo’yli, ochiq chehrali, katta ko’zli bo’lib, butun vujudidan mushk hidi kelar edi. Ulug’ valiylardan bo’lib, ilm, hilm, zuhd, taqvo, riyozat va ibodat ahli edi. U bog’bonlik bilan shug’ullangan ko’pincha katta oq salla kiyib yurgan. Xoja Orif Revgariy Abduxoliq G’ijduvoniyning to’rtinchi xalifasidir. Farididdin Ali Safiy o’zining “Rashahotu ayn ul-hayot” asarida Revgariyning Buxoroning Revgar dahasidan ekanini, Abduxoliq G’ijduvoniyning suyukli shogirdlaridan biri ekanini aytib o’tgan. Xoja Bahouddin Naqishband Revgariy haqida hurmat bilan shunday deydi: “Xoja Orif Revgariy Xoja Abduxoliq G’ijduvoniyy qaddasallohu taolo sirruhaning xulafolaridan to’rtinchi halifalaridan edilar”.

Revgariyning to’liq nomi uning qalamiga mansub «Orifnoma» asarida Xoja Muhammad Orif ibn Ma’ruf Revgariy ko’rinishida keltirilgan. Biroq uning nisbasi turli manbalarda turli ko’rinishlarda eslatiladi. Jumladan, uning nisbasi ushbu so’fiy qalamiga mansub «Orifnoma», shuningdek, Fazlulloh ibn Ro’zbehonning (1457–1530) «Manoqibi

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy», muallifi noma'lum «Maqomoti Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy va Xoja Orif Revgariy» va Sulton Muhammad Doroshukuhning (1615–1659) «Safinat ul-avliyo» asarlarida «Revgariy» ko'rinishida eslatilgan bo'lsa, Abdurahmon Jomiyning (1414–1492) «Nafahot ul-uns» asarida «Revgiraviy», Alisher Navoiyning (1441–1501) «Nasoyim ul-muhabbat» va Faxriddin Ali Safiyning (1463–1533) «Rashahot ayn al-hayot» asarlarida «Revgaraviy» shaklida keltiriladi. Xojagon-naqshbandiya tariqatining keyingi asrlarda yaratilgan arabcha manbalarida bu nisbaning talaffuzi yanada o'zgaradi. Shuningdek, Xoja Muhammad Orifning nisbasi Abdilmajid Xoniy Naqshbandiyning (1847–1900) «Al-Hadoyiq ul-vardiya» asarida «Revgiriy», Muhammad Amin Kurdiy Arbiliyning (1860–1914) «Mavohib as-sarmadiya» asarida esa «Ravaygiriy» ko'rinishida ham uchraydi. O'z tadqiqotlarida ko'proq xojagon-naqshbandiya tariqatining keyingi asrlarda yaratilgan arabcha manbalariga tayanadigan turk tasavvufshunosi Hasan Komil Yilmaz Xoja Muhammad Orifning nisbasini «Rivegariy» shaklida keltiradi. Biroq hozirgi zamon tadqiqotchilari, birinchidan, Xoja Muhammad Orifning tavallud topgan qishlog'inining nomi Revgar bo'lganligi, ikkinchidan, ushbu so'fiyning o'zi «Orifnomá» asarida o'z nisbasini «Revgariy» ko'rinishida keltirganidan kelib chiqib, uni Revgariy shaklida eslatadilar. Xojay Jahon - Abdulxoliq G'ijduvoniyning shogirdi 11-halqaning piri, Buxoroi Sharif Yetti Pirining ikkinchisi, tabarruk va ulug' zot Mohitobon nomi bilan mashhur Xoja Muhammad Orif Revgariydir. Orif Revgariyning hozirgi kunga qadar "Orifnomá" risolasi saqlangan . Orif Revgariy bu asarida oriflarga murojaat etib, ularga durdona fikrlarini aytgan. Risolada o'zi aytgan 27ta hikmatli so'z keltirilgan. Shuningdek, Orif Revgariy mashoyixlarning kalomini tinglash insonlarning qalbida tavfiq uyg'otgani sabab shogirdlariga 38ta mashoyixning hikmatini bayon etgan. Orif Revgariy:"Odamni saodatga yaqinlashtiruvchi xislat shuki, o'zini maloikka monand etsin, ya'ni nafsin o'ziga bo'ysundirsin va afif-pokiza bo'lsin, mudom zokir, bandalikka jiddujahd va sa'y-harakat qilsin", deb uqtirgan.

Har bir xalq ma'naviyatining yuksalishi va barqaror taraqqiyoti, avvalo, uning ma'rifiy va falsafiy merosiga bog'liqdir. O'zbek xalqining tasavvufiy-ma'rifiy ta'liloti tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi va bu tarixiy-madaniy merosning muhim qismini Xojagon ta'lilotining yetuk namoyandalari yaratgan asarlar tashkil etadi. Shulardan biri — Xoja Orif

Revgariyning “Orifnomा” asaridir. Ushbu asar nafaqat tasavvuf tarixi, balki umumiy falsafa tarixi uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Endi «Orifnomа» asarining bevosita o’rganilishi to’g’risida ham so’z yuritib o’tsak. Narzulla Yo’ldoshev, Orif Usmon, Sadriddin Salim Buxoriy va Sayfiddin Sayfulloh kabi olimlar, shuningdek, mualliflar guruqlarining, umuman tasavvuf, jumladan, xojagon-naqshbandiya tariqatiga bag’ishlangan risolalari va to’plamlarida Xoja Orif Revgariy, jumladan, uning «Orifnomа» asari to’g’risida umumiy ma’lumotlar berib o’tilgan. O’zbek tasavvufshunoslaridan Ibrohim Haqqul o’zining «Xoja Orif mohitobon» essesida hamda Gulchehra Navro’zovaning «Orif Revgariy» risolasida birinchilardan bo’lib ushbu asarni, shu orqali Xoja Orif Revgariy ta’limotini maxsus tadqiq qilishni boshlab berishgan. Bulardan tashqari Sayfiddin Sayfullohnинг xojagon-naqshbandiya tariqati pirlari hayoti va faoliyatini tadqiq etishga bag’ishlangan «Etti pir» asarida ham muallifning Xoja Orif Revgariyning hayoti, faoliyati va qarashlari, shuningdek, uning «Orifnomа» asari to’g’risida amalga oshirgan tadqiqotlari natijalari bayon qilingan.

Asarda insonning ma’naviy yuksalishi, axloqiy kamoloti, nafs bilan kurash, iroda, sabr, ruhiy tarbiya kabi murakkab masalalar keng qamrab olingan. Ushbu g’oyalar nafaqat islomiy falsafa, balki umuminsoniy g’oyalar nuqtai nazaridan ham alohida ahamiyatga egadir. Buning natijasida “Orifnomа” nafaqat diniy-ma’rifiy, balki falsafiy manba sifatida ham o’rganishga loyiqidir.

Sadriddin Salim Buxoriy va Samad Azimovlarning ma’lum qilishlaricha, mustaqillik davriga qadar O’zbekiston ilmiy jamoatchiligi «Orifnomа» asari va uning qo’lyozma nusxalari to’g’risida ma’lumotga ega bo’lmagan. 1993 yili Bahouddin Naqshband yubileyi tadbirlarida ishtirok etish uchun Buxoroga kelgan pokistonlik olim va so’fiy Shayx Zulfiqor Ahmad Naqshbandiy Pokistonda ushbu asarning qo’lyozma nusxasi mavjudligi to’g’risida ma’lum qilib, keyinchalik uning nusxasini O’zbekistonga yuboradi. Yuqoridagi mualliflarning «Buyuk G’ijduvoniylar» asarida bu to’g’rida quyidagicha hikoya qilinadi: “Xoja Orif Revgariy o’z muridlarini xojagon-naqshbandiya tariqatining Xoja Abduxoliq G’ijduvoniylar tomonidan shakllantirilgan asoslari va qoidalariga muvofiq tarbiyalashda hamda

o'z ustozi ta'limotini targ'ib etishda davom etish bilan birligida, o'zi ham ushbu ta'limotga ayrim yangiliklar va to'ldirishlar kiritdi. Revgariy «Orifnomalar» hamda o'z shayxlik amaliyotida tasavvufning quyidagi asoslarini aytib o'tadi:

“Shariat. Xoja Orif Revgariy o'z muridlarini barcha hollarda, birinchi navbatda, Muhammad (s. a. v.) shariatiga amal qilishga chorlash orqali shariatni tasavvufning ilk sharti sifatidagi o'rmini ko'rsatib berar ekan, kishi so'fiylik yo'liga kirib borishi uchun quyidagi qat'iy ketma-ketlikda keladigan bosqichlarni bosib o'tishi lozimligini ta'kidlaydi: 1) shariatga qattiq rioya qilish; 2) Allohning unga nisbatan belgilagan har qanday taqdiriga rozi bo'lish; 3) o'z ixtiyori va irodasidan voz kechib, Xudoning unga nisbatan qiladigan har qanday irodasiga rozi bo'lish. Kishi shariat bilan boshlanadigan mazkur yo'lni bosib o'tganidan keyin sayru suluk bosqichlariga qadam qo'yadi.

Sayru suluk bosqichlari. Xoja Orif Revgariy nazdida solik yo'lining boshi tavba, sayru sulukdagi maqomlarga erishishining sharti esa toliblikdir. Uning fikricha, tolib himmat (urinish), tavajjuh (diqqat), riyozat (mashaqqat) va mujohadat (tirishish) orqali o'zidagi yomon xislatlardan xalos bo'lib, yaxshi xislatlar kasb etadi-da, oxir-oqibat, visol (Xudoga yetishish) sharafiga tuyassar bo'ladi. Biroq tolib buning uchun talab vodiysining quyidagi ketma-ketlikdagi maqomlarini bosib o'tishi lozim bo'ladi: vajd (o'zini yo'qotib qo'yish) – kashf (ochish) – ma'rifat (Xudoni bilish) – mushohadat (g'aybni ko'rish). Solik mushohadat maqomiga yetganidan keyingina uni g'ayb olamini ko'rishdan to'sib turgan pardalar ko'tarilib, ushbu olamning sirlari unga ayon bo'ladi. Revgariy tasavvuridagi visol ana shundan so'ng yuz beradi.

Sayru suluk hosilalari. Xoja Orif Revgariy sayru suluk hosilalaridan bo'lmish ma'rifat, oriflik va valiylik hodisalarini ta'riflab o'tadi.

Ma'rifat. Revgariy nazdida ma'rifatning mohiyatini qalbning Alloh yagonaligini tasdiqlashi, ma'rifatning asosini esa Xudoga bo'lgan sidq va e'tiqod ma'rifati tashkil etadi. Ma'rifatning samarasi esa bandaning tamomila Parvardigorga yuz tutishidan iboratdir”

### **Foydalaniman Adabiyotlar Ro'yxati:**

1. Наврӯзова Г.Н, Акобирова Д.Ж. Ориф Ревгарий. –Тошкент: “Парадигма”, – 2018.

2. Рахимов Комилжон Хожа Ориф Ревгарий ва унинг “Орифнома” асари қўлёзма нусхалари ҳақида. INFOLIB ахборот-қутубхона журнали, – 2024. - №1
3. Садриддин Салим, Азимов Самад. *Буюк гиждувонийлар*. “Бухоро” нашриёти. 2006
4. Хожа Ориф Ар- Ревгарий. ОРИФНОМА. – Тошкент: Наврӯз , 1994.
5. Гулчехра Наврӯзова НАҚШБАНДИЯ – ҲУШЁРЛИК ЙЎЛИ. «ФАН» НАШРИЁТИ ТОШКЕНТ.- 2024